



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

2018 yilning yanvar – avgust oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

27 680,8 mlrd.сум

Yirik pudrat

tashkilotlari ulushi -

29,3 %

Kichik tashkilotlar va

mikrofirmalar ulushi -

42,1 %

Norasmiy sektor

ulushi -

28,6 %

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 27 680,8 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,4 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 8 112,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 29,3 %ni, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,7 %ni tashkil etdi.

Kichik korhona va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 42,1 %i yoki 11 649,1 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan

yilning mos davriga nisbatan 113,5 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 28,6 % yoki 7 919,2 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,0 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat
tashkilotlari

- hajmi -
8 112,5 mlrd.so'm
- o'sish surati -
97,7 %


Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar

- hajmi -
11 649,1 mlrd.so'm
- o'sish surati
113,5 %

Norasmiy sektor

- hajmi -
7 919,2 mlrd.so'm
- o'sish surati -
99,0 %

Yanvar - avgust oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 77,2 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 11,3 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkich bilan to'g'ri keldi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,5 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.

Yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 27,2 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 36,4 % (1,9 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 36,4 %ni (2,0 % punktga kamayish) tashkil etdi.


**2018 yil yanvar-avgustida faoliyat turlari bo`yicha tarkibi
(jamiga nisbatan %da)**



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo`yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 48,3 %ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 2,4 % punktga ko`paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 46,9 % (2,0 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 4,8 %ni (0,3 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 8,0 % punktga kamaydi va 24,8 %ni tashkil etdi. Qolgan 75,2 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 8,0 % punktga ko`paydi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 11 649,1 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 42,1 %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,5 %ga ko'paydi.

Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan 8 112,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 29,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,7 %ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 28,6 %i yoki 7 919,2 mlrd. so`mni tashkil etib, o`ngan yilning mos davriga nisbatan 99,0 %ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlarining o`shish suratlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida Navoiy viloyati yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 35,4 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.


Hududlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Samarqand viloyatida kuzatildi – 1,8 %. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keladi – hududdagi jami qurilish ishlarining 49,7 %i.

Ushbu hududda ham kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan salmoqli qurilish ishlari bajarildi va ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hududdagi jami qurilish ishlarining 48,5 %ini tashkil etdi.

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish surati Navoiy viloyatida kuzatildi. Ushbu hududda "Auminso-Amantoy konlari" da oltin-ma'danli konlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (I-II bosqich), Amudaryo-Zarafshon suv yo`lida nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish kabi loyihalarning amalga oshirilayotgani tufayli ushbu hududda o`shish suratining 126,0 % bo`lishini ta`minladi.

Toshkent shahridagi yuqori o`shish surati, yani 111,3 % metro liniyalarining qurilishi, Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

Toshkent viloyatidagi yuqori o`shish surati 111,6 % asosan yirik qurilish obyektlaridagi ishlarining jadal bajarilganligi bilan bog`liq.


Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so`m)



Qurilishda band bo`lgan har bir ishchiga to`g`ri keladigan qurilish ishlarini ko`radigan bo`lsak, eng yuqori ko`rsatkich Toshkent shahrida kuzatildi. Bu hududda qurilishda band bo`lgan har bir ishchiga 44,4 mln. so`m qurilish ishlari hajmi to`g`ri keldi.

Shuningdek, Jizzax viloyatida ham bu ko`rsatkich boshqa hududlarga qaraganda sezilarli darajada katta boldi – 29,7 mln. so`m.

Qurilishda band bo`lgan 1 kishiga to`g`ri keladigan qurilish ishlari hajmi



Toshkent viloyati bo`yicha qurilishda band bo`lgan har bir kishiga Respublikadagi eng past ko`rsatkich 11,3 mln. so`m tog`ri keldi.



O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas`ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56